

MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLARNING AHAMIYATI

Avlaqulov Sobir Shodiqul o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, "Intellectual mulk va axborot texnologiyalari huquqi" yo'nalishi magistranti

Mualliflik huquqi intellektual mulkni himoya qiluvchi eng muhim huquqiy institutlardan biridir. U fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflariga o'z asarlaridan foydalanishga mutlaq huquqlar vujudga keltiradi, shuningdek ushbu asarlardan boshqalarga foydalanishga ruxsat berish vakolatini beradi. Biroq, ayrim hollarda mualliflarning mulkiy huquqlarini amalga oshirish qiyin yoki hatto imkonsiz bo'lishi mumkin. Masalan, agar asar ommaviy miqyosda ishlatilsa, u holda asarning har bir foydalanuvchisidan haq olish uchun muallif u bilan alohida shartnoma tuzishi kerak bo'ladi. Bu vaqt va resurslarning katta sarmoyasi, shuningdek uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish xavfi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Hozirda axborot-kommunikasiya tarmoqlarning tez sur'atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelishi ijodkorlarni o'z asarlariga bo'lgan mutlaq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishga undamoqda. Ma'lumki, so'nggi yillarda insonning axborot va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, internet va telekommunikasiya tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog'liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bu kabi jarayonlarni mualliflik huquqi ob'ektlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi³⁷. Masalan, muallif, ijrochi yoki prodyuser o'z qo'shiqlaridan foydalanish uchun litsenziya va haq to'lash uchun har bir radiostantsiya bilan bog'lana olmaydi. Boshqa tomondan, radiostantsiya har bir qo'shiqdan foydalanish uchun har bir muallif, ijrochi va prodyuserdan maxsus ruxsat olishi amaliy emas³⁸.

Ushbu muammoni hal qilish uchun ko'plab mamlakatlar qonunchiligida mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar orqali himoya qilish imkoniyati ko'zda tutilgan. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-

³⁷ Юлдашов А. А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-хуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № __ (2022) Б

³⁸ <https://www.wipo.int/copyright/en/management/>

quvvatlash markazlari, patent vakillari, tadqiqot markazlari kabi intellektual mulkning muhim institutlaridan biri sanaladi³⁹.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar mualliflik huquqida muhim o'rin tutib bormoqda. Odatda, intellektual mulkni boshqarishning ikki usuli amal qiladi va keng tarqalgan. Bular mutlaq huquqlarni ishonchli boshqarish va mualliflik va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish usullaridir⁴⁰.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar – bu huquq egalari nomidan harakat qiluvchi tashkilot hisoblanadi. Huquq egalari nomidan bu kabi tashkilotlar foydalanuvchilar bilan tariflarni kelishadi, muhofaza qilinadigan asarlardan foydalanish bo'yicha litsenziyalarni beradi, asarlardan foydalanishdan tushgan mablag'larni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlaydi hamda foydalanish tartibini nazorat qiladi⁴¹.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish instituti eksklyuziv huquqlardan foydalanish va mutlaq huquqlardan foydalanganlik uchun haq to'lash jarayonini optimallashtirish orqali mualliflik huquqi egalari va foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlashning soddalashtirilgan tartibini amalga oshirish imkonini beradi⁴².

Jamoaviy tashkilotlar orqali huquqlar boshqarilganda ko'p tomonlama munosabatlar vujudga keladi, bir tomondan muallif va jamoat tashkiloti o'rtasida va ikkinchi tomondan jamoat tashkiloti va asardan foydalanuvchilar o'rtasida. Barcha hollarda ham huquqiy munosabatlar tegishli shartnomalar asosida tartibga solinadi. Bu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, ko'p hollarda muallif (ijrochi) bir vaqtning o'zida o'zi ham, jamoat tashkiloti orqali ham amalga oshirishi mumkin. Masalan, professional estrada xonandasi yakka tartibdagi konsertlarda huquqlarini shaxsan o'zi amalga oshiradi, biroq radio, televideniya, ko'ngil ochar marosimlarida uning ijrolari bo'yicha huquqlarni jamoa tashkiloti amalga oshiradi⁴³.

Shuni aytib o'tishimiz lozimki, mamlakatimizda so'ngi yillarda intellektual mulk obyektlarini himoya qilish borasida yangi qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-

³⁹ Yuldashov A., Usmonov V. Copyright Protection in Uzbekistan by The Collective Management Organizations //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 25. – C. 185-188.

⁴⁰ Bahramovna Y. I. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutining tashkiliy-huquqiy shakllari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 25-31.

⁴¹ Copyright Industries in the US Economy. [Available at: <https://www.iipa.org/files/uploads/2020/12/2020-IIPA-Report-FINAL-web.pdf>].

⁴² ЛУТОВИНОВА Наталья Викторовна Модели коллективного управления объектами авторского права и смежных прав с участием организаций коллективного управления имущественными авторскими и смежными правами

⁴³ Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan yozilgan dissertatsiya. – Toshkent 2000-yil 227-bet.

apreldagi “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son qarori bilan “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish Strategiyasi” tasdiqlandi⁴⁴.

Strategiyada intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish yo‘nalishida intellektual mulk obyektlarini ishonchli huquqiy himoya qilish maqsadida soha bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasidagi idoralararo hamkorlikni yanada takomillashtirish, intellektual mulk sohasidagi nizolarni sudga qadar hal qilish tartiblarini keng joriy qilish va intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar faoliyati bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish vazifalari belgilangan. Shuningdek, Strategiyada mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini tahliliy o‘rganish, ularni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni tom ma‘noda himoya qiluvchi tashkilotlarga aylantirish choralari ko‘rish qat‘iy belgilab qo‘yildi.

Avvalo, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning foydali jihatlari shundaki, mualliflarning huquqlarini samarali boshqarilishini, himoya qilinishini ta‘minlaydi hamda mualliflar va foydalanuvchilar o‘rtasida professional vositachi vazifasini bajaradi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda bunday tashkilotlar ko‘plab tuzilgan va samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu institutning ahamiyatini to‘g‘ri anglagan holda, yurtimizda ham bu institutni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilishi belgilanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyati mexanizmlari va tashkiliy-huquqiy tuzilishini rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tashkil etish⁴⁵ maqsadga muvofiq.

Shuni ta‘kidlash kerakki, bunday tashkilotlar tuzish tashabbusi bilan aynan muallif va huquq egalari chiqishlari lozim. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 56-moddasida fan, adabiyot va san‘at asarlarining mualliflari, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar yoki boshqa huquq egalari o‘z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o‘z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqli ekanligi belgilangan⁴⁶.

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5987120>

⁴⁵ Туракулова Н., Юлдашов А. Интеллектуал мулк ҳуқуқи ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштиришда халқаро шартномаларнинг ўрни ва аҳамияти //Conferencea. – 2022. – С. 467-471.

⁴⁶ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.07.2006 yil <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

Hozirda mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Jamoaviy boshqaruvning maqsadi quyidagi misoldan ayon bo'ladi: bastakor yoki musiqachi o'z musiqasini yozib olishga yoki shaxsan o'zi eshittirishga rozi bo'lishi mumkin, biroq madaniyat va axborotning ayrim sohalarida (radio, televideniya, konsert faoliyati va boshqalar) turli mualliflarning asarlari soni shunchalik ko'payib ketdiki, har bir muallif bilan individual shartnomalar tuzish deyarli imkonsiz bo'lib qoldi. Muallif o'z asaridan foydalanadigan har bir kishini kuzatishning deyarli imkoni yo'q. O'z navbatida, radioeshittirish tashkilotlari odatda foydalanish uchun har bir alohida muallifdan ruxsat so'ramaydi. Mualliflik huquqi egasi uchun ham, foydalanuvchi uchun ham ushbu harakatlar ustidan shaxsiy nazoratning o'ta qiyinligi jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini keltirib chiqardi, ularning vazifasi mulkiy huquqlar muhofazasini ta'minlashdir.

Tarixga nazar tashlasak, jamoaviy boshqaruv institutining paydo bo'lishi mualliflar huquqlarini himoya qilish uchun kurashgan jamiyatlarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining dastlabkisi Fransiyadagi birinchi kasaba uyushmalari edi⁴⁷.

Mualliflar manfaatlarini himoya qiluvchi birinchi jamiyat 1777-yilda tashkil etilgan va dramaturglarni huquqiy himoya qilish byurosi deb nomlangan. Byuroga mashhur "Sevilya sartaroshi" va "Figaroning nikohi" asarlari muallifi Pier de Bomarshe rahbarlik qilgan. Muayyan moliyaviy muammoni muhokama qilish uchun yig'ilgan o'sha davrning yigirma ikki mashhur yozuvchisi munozarani o'z huquqlarini jamoaviy himoya qilish darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'ldilar va doimiy "komissarlarni" tayinladilar, "qalam zarbasi" o'tkazdilar (shunga o'xshash harakat faqat ikki asrdan keyin AQShda amalga oshirildi) va shu tariqa fransuz musiqa va dramatik asarlar mualliflari jamiyatiga asos soldi. Xuddi shu yili Dramatik qonunchilik byurosi tuzildi⁴⁸.

Jahon tajribasida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish 2 xil tizimda tashkil etiladi. Birinchisi, raqobat tizimi bo'lib, bunda faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, turli shu tuzilishdagi tashkilotlar tuzilishiga yo'l qo'yiladi. Ikkinchisi esa monopolistik tizim bo'lib, bunda mamlakatda faqatgina yagona mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tuzilishi belgilangan. Shandong Universiteti Huquq maktabi tadqiqotchisi Chenyi Zhao AQSh (raqobat tizimi) va Germaniya, Italiya (monopol tizim) davlatlarini ushbu

⁴⁷ Рузакова О.А. Право интеллектуальной собственности: учебно-практическое пособие для вузов. М.: Элит, 2005. – С. 85.

⁴⁸ Моргунова Е.А. Авторское право: учеб.пособие / Е.Н. Моргунова; отв. ред. В.П. Мозолин. М.: Норма, 2008. – С. 204.

yo'nalishlarga misol sifatida keltirgan Shuningdek, ushbu ro'yxatga Yaponiya, Meksika, Norvegiya, Polsha, Shvetsiya, Daniya davlatlarini ham kiritish mumkin. Shuni unutmash kerakki, ba'zi bir davlatlarda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar davlat ko'magida tashkil etilish amaliyoti ham mavjud (Masalan, Rossiya Federatsiyasi)⁴⁹.

BIMT ma'lumotlariga ko'ra, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning operatsiyalari uchta asosiy ustunga asoslanadi. Bular:

- a) Huquqlarni boshqarish;
- b) Huquqlarni litsenziyalash;
- c) Daromadlarni to'plash va huquq egalari taqsimlash.

Shuningdek, ushbu institutining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- professional tashkilotga tegishli vakolatlar berish orqali intellektual mulk huquqlarini individual himoya qilish qiyinchiliklarini bartaraf etish;
- mualliflik huquqi egalari ruxsatisiz, lekin ularga haq to'lash bilan qonun hujjatlarida asar, spektakl va fonogrammalardan foydalanishga ruxsat berish va bunday haq undirishni samarali tashkil etish imkoniyati⁵⁰.

Odatda, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar:

- qachon, qayerda va qanday asarlardan foydalanilishini nazorat qiladi;
- foydalanuvchilar bilan tariflar va boshqa shartlarni kelishib oladi;
- o'z a'zolari va o'zi vakillik qiladigan boshqa huquq egalari nomidan himoyalangan asarlardan foydalanishga litsenziya (ruxsat) beradi;
- foydalanuvchilardan to'lovlarni yig'adi va ularni huquq egalari taqsimlaydi⁵¹.

Umuman, jamoaviy boshqaruvning asosiy maqsadi intellektual mulkdan foydalanish jarayonida mualliflik huquqi egalari va foydalanuvchilarni maqbul tarzda o'zaro bog'lash hamda ularning huquqiy va ma'muriy xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yurtimizda mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini yanada jonlantirish, shu jumladan, ularni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni samarali himoya qiluvchi tashkilotlarga aylantirish bo'yicha zarur choratadbirlarni amalga oshirish zarurati mavjud. Shuningdek, qonunchiligimizda bunday tashkilotlarning vazifa va funksiyalarini aniq belgilab qo'yish, ularning faoliyati mexanizmlari va tashkiliy-huquqiy tuzilishini rivojlangan xorijiy

⁴⁹ Yuldashov, A. (2023). The role of organizations managing property rights on a collective basis in protection of copyright and related rights. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 28(3), 8. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a39-46

⁵⁰ <https://sumip.ru/biblioteka/avtorskoye-pravo/kollektivnoe-upravlenie/>

⁵¹ <https://www.wipo.int/copyright/en/management/>

mamlakatlar tajribasi asosida tashkil etish lozim. Shu bilan birga, O'zbekistonda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir qonun osti hujjati ishlab chiqish hamda ularni ixtisoslashuvidan kelib chiqib, faoliyatini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi⁵².

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Bahramovna Y.I. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutining tashkiliy-huquqiy shakllari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 25-31.
2. Copyright Industries in the US Economy. [Available at: <https://www.iipa.org/files/uploads/2020/12/2020-IIPA-Report-FINAL-web.pdf>].
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-221-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5987120>
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.07.2006 yil <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>;
5. Моргунова Е.А. Авторское право: учеб.пособие/Е.Н. Моргунова; отв. ред. В.П. Мозолин. М.: Норма, 2008. – С. 204.
6. Yuldashov, A. (2023). The role of organizations managing property rights on a collective basis in protection of copyright and related rights. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(3), 8. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a39-46
7. <https://sumip.ru/biblioteka/avtorskoye-pravo/kollektivnoe-upravlenie/>
8. <https://www.wipo.int/copyright/en/management/>
9. Oqyulov O. Intellectual mulkning huquqiy maqomi. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan yozilgan dissertatsiya. – Toshkent 2000-yil 227-bet.
10. Тўракулова Н., Юлдашов А. Интеллектуал мулк ҳуқуқи ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштиришда халқаро шартномаларнинг ўрни ва аҳамияти //Conferencea. – 2022. – С. 467-471.

⁵² Юлдашов А. А. Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт Узбекистана и мира //Цифровая среда и политика университетов в сфере интеллектуальной собственности. – 2021. – С. 198-205.

11. Yuldashov A., Usmonov V. Copyright Protection in Uzbekistan by The Collective Management Organizations //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 25. – С. 185-188.

12. Юлдашов А. А. Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт Узбекистана и мира //Цифровая среда и политика университетов в сфере интеллектуальной собственности. – 2021. – С. 198-205.

13. Юлдашов А. А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № __ (2022) Б

14. <https://www.wipo.int/copyright/en/management/>